

KICHIK GURUHLARNI O'RGANISH PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.

Ramazonov Jahongir Djalolovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sayidaxmedova Lola Abdurasulovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotasiya: Maqolada kichik guruhlar turli xil individual imkoniyatlarning ro'yobga chiqarish, rasmiy va norasmiy guruhlar doirasidagi o'quvchilar jamoasida o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlar, shaxs ijtimoiy taraqqiyotida eng avvalo shaxslararo munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiluvchi o'ziga xos individual, guruhviy va etnopsixologik imkoniyatlar ko'lamining qanchalik muxim ekanligi xususida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: kichik guruh, rasmiy va norasmiy guruhlar, ijtimoiy persepsiya, pedagogik jarayon, tarbiyaviy munosabatlar, ta'lim, tarbiya, o'zini-o'zi tarbiyalash, muloqot va rivojlanish.

Ma'lumki, ijtimoiy psixologiya fanida aynan kichik guruhlar psixologik xizmat ko'rsatish muammosiga bag'ishlangan va uning barcha yo'nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar etarli bo'lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida psixologik xizmat muammosining zarurligini ko'rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin.

Mazkur adabiyotlarni tahlil qilishda psixologik xizmat metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilish muhim o'rin tutadi. Chunki, barcha tadqiqotchilar ham ijtimoiy psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda psixologik xizmat uchun muhim bo'lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab beradilar. Bular ichida psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin. Bu esa kichik guruhlar psixologik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bugungi kundagi ayrim dolzarb jihatlari, muammolari va uning echimlari haqida o'ylashga, fikr mulohaza yuritishga va o'z tadqiqotimiz vazifalarini belgilab olishga nazariy-ilmiy va metodologik manba sifatida yordam beradi, deb o'ylaymiz. Zero, bugungi kungacha yaratilgan barcha ijtimoiy psixologik prinsiplarning asosiy mezonlari bo'lgan "shaxs va faoliyat birligi", "o'zining faoliyatda taraqqiysi", "muomala", "individual yondoshuv", "munosabat", "turmush tarzi", "ijtimoiy ustanovka", "borlikni ob'ektiv va sub'ektiv aks ettirish", "jamiya", "ijtimoiy qoniqish", "ijtimoiy xulq-atvor" kabilarning jamiyatdagi amaliy o'rni va istiqbolini psixologik xizmat tadbikisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, olimlar tomonidan bugungi kunda ijtimoiy-psixologik hodisalarga inson taraqqiyoti va qadriyatlari asosida yondoshuv muammosining o'rta

tashlanishi psixologik xizmat metodologiyasi haqida jiddiyroq o'ylashni va mulohaza yuritishni taqozo etmoqda.

Bugungi psixologiya fani taraqqiyoti an'analari bilan bog'liq insonning amaliy psixologiyasini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo'lmaydi. SHu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to'g'ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a'zolariga psixologik xizmat ko'rsatish muqarrarligini talab qiladi. Binobarin, har bir fanning rivojlanishi yangi dalillar asosida ilmiy yunalishni ochib beruvchi metodik qurilmalarning tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, aniq metodologiya bo'lmagan sohada aniq amaliy natijalar ham bo'lmaydi. Zero, ijtimoiy psixologiya fanining yana bir muhim yangi vazifasi psixologik xizmat metodologiyasi bilan bog'liq nazariy, amaliy va empirik yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lamini belgilashning bugungi kungacha nechoglik hal qilinayotganligini tahlil qilishga to'g'ri keladi. Bu borada psixologiya olamida hanuzgacha aniq va mukammal tarzda ishlab chiqilgan va rasmiy tarzda tan olingan yagona ilmiy yo'nalish yoki konsepsiyaning qabul qilinmaganligi (balki olimlarning ilmiy-psixologik qarashlari turlicha bo'lganligi uchun buning iloji ham yo'qdir) ayon bo'lsada, ilg'or g'arb psixologiya vakillari, shu jumladan, markaziy osiyo davlatlari psixologlari va o'zbekistonlik psixologlar tomonidan olib borilgan va olib borilayotgan fan olami uchun o'ziga xos salohiyatga va nufuzga ega bo'lgan tadqiqotlar mavjudki, ular qaysidir jihati bilan psixologik xizmat dasturi va ijtimoiy istiqbollari haqidagi ilmiy-amaliy tasavvurlarimizni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlardan bizga ma'lum bo'lishicha, ijtimoiy psixologik xizmat metodologiyasining umumiy yo'nalishlari ifodalangan. G'arb ijtimoiy psixologiya namoyandalari tadqiqotlarini quyidagicha izoxlash mumkin: V.Vundtning 1900 yilda chop etilgan "Xalqlar psixologiyasi" nomli yirik (o'n tomlik) epik asari ijtimoiy psixologiya yunalishlarini yorqinlashtirishga xizmat qilib, inson ma'naviyati, madaniyati va mafkurasini o'rganishning murakkab tomonlarini ochib berdi. Taniqli ingliz psixologi Vilyam Makdugallning 1908 yilda yozilgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" asaridagi "ijtimoiy xulq-atvor instinktlari" nazariyasi freydizmga qarshi o'laroq inson instinktlari va faoliyat uyg'unligini ta'minlash muammosini yoritishga ilk bor asos bo'lib xizmat qildi. Binobarin, E.Fromm, J.Saliven, V.Shuts, G.Sheparde, V.Bayon kabi olimlar tomonidan guruxlar psixologiyasi nazariyasini yaratishga asos solindi. Bunda turli xil ijtimoiy psixologik treninglar orkali guruxdagi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq psixologik iqlimni kamol toptirish yo'llarining ilk bor ko'rsatilishi mehnat jamoalaridagi ijtimoiy psixologik xizmat vazifalarini belgilash uchun ma'lum darajadagi empirik ma'lumot sifatida xizmat qilishi mumkin. G'arbda yaratilgan kognitivizm doirasidagi nazariyalar psixologik xizmat metodologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega.

Umuman, psixologik xizmatning ma'lum bir qismi bo'lgan kichik guruhlariga psixologik yordam ko'rsatishning nazariy va metodologik ildizlari turli guruhdagi olimlar

tomonidan shaxs va faoliyat uyg'unligining psixologik ta'minlanishi bilan baholash tendensiyasiga amal qilinishi kuzatiladi. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin:

Shunday qilib, yuqoridagi tadqiqot yo'nalishlarining tahlili birinchidan umumiy tarzda, ilmiy-nazariy jihatdan shaxs va guruhiiy faollik jarayonlariga ta'rif berish imkonini bersa, ikkinchidan tadqiqot maqsadiga mos kichik guruhlardagi shaxslararo faolligini tadqiq qilish bilan bog'liq mezonlarni ishlab chiqish va uni psixologik xizmat ko'rsatish davomida amaliyotda qo'llash uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak, shaxs va guruhiiy faollikning namoyon etilishi, bu o'z-o'zini rivojlantirish va ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish uchun yuqori darajadagi intilishlar mahsulidir. SHu boisdan kichik guruhlar doirasidagi har bir, shaxs faoliyatining ijtimoiy psixologik taraqqiyot talablari asosida qaror toptirilishi mazkur shaxsning o'zi uchun ham, ayni paytda, jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik guruhlariga ta'rif berish muammosi G'arbda va AQSHda turlicha metodologik yondoshuvlarga asoslanadi. Jumladan, kichik guruhga asosan his-hayajonga oid bog'lanishlar (xayrixohlik, yoqtirmaslik, befarqlik, ko'ngilchanlik va hokazo) orqali hosil bo'ladigan umumiylik deb qaraladi. Qichik guruhlarning jipsligi, ular tuzilishining guruh ichidagi aloqalarni uzishga qaratilgan kuchlar ta'siriga qarshi barqarorligi, guruh faoliyatining uning hajmiga, unga rahbarlik qilish uslubiga bog'liq holdagi samaradorligi, shaxsning guruhdagilarga moslashuvi (konformliligi) yoki uning guruhdan mustaqilligi, kabi holatlar eksperimental tadqiqot mavzusi qilib olinib guruh dinamikasi (group dynamics)ga asos solingan. Bundan, tashqari, turli xil sotsial-psixologik hodisani tushunib etish uchun yagona nazariy asosning yo'qligi Amerika sotsial psixologiyasiga turli xil qarashlarning mavjudligiga sabab bo'lmoqda. Unga ko'ra har xil guruxlardagi odamlar xulq-atvorining qonuniyatlari aslini olganda bilib-bilmasdan bo'ladigan bog'lanishga borib taqaladi: guruh tazyiq o'tkazadi, guruh a'zolari esa guruhiiy tazyiqqa bo'ysunadilar yoki bo'ysunmaydilar (konformizm moslashuv, nokonformizm — moslashmaslik); guruh bir xil individlarga yaqinlashadi, boshqalaridan esa o'zini chetga oladi yoki, aksincha, ularni o'z mohiyatidan chiqarib yuboradi; agar guruh ichidagi aloqalar soni ko'paya borsa, u holda guruhiiy aloqalar nafislashib boradi va uzilib qoladi (jipslik, moslik) va hokazo.

Yuqoridagi metodologik qarashlar asosida kichik guruhlariga turli xil ta'riflar beriladi. Jumladan, har bir shaxs uchun taraqqiyotning har bir alohida bosqichida shunday odamlar guruhi bo'ladiki, u ularning niyatlari, qiziqishlari, harakat me'yorlari, g'oya va fikrlariga ergashishga tayyor bo'ladi, harakatlaridan andoza oladi, ularga taqlid qiladi. Bunday guruh psixologiyada **referent guruh** deb ataladi. Amerikalik sotsiologlar referent guruhlarining bir necha turlarini farqlaydilar. Ya'ni, *normativ guruhlar* - bu shaxs uchun shunday insonlar guruhiki, ularning me'yorlarini u ma'qullaydi, ularga amal qilishga hamisha tayyor bo'ladi. Bunday guruhlariga birinchi navbatda oilani, diniy yoki milliy uyushmalarni, professional guruhlarini kiritish mumkin. Masalan, o'zbek xalqi uchun dasturxon atrofiga o'tirgan zahoti yuzga fotiha tortish, mezbonlarning mehmonlarga "Xush kelibsizlar" deyishlari norma hisoblanadi va har bir oilada shunday harakatlarga

nisbatan ijobiy ustanovka shakllanadi. Bunda bola uchun referent rolini ota-onasi, kattalar, mahalladagi hurmatli insonlar o'ynaydi.

Qiyoslash guruhleri – bu shunday guruhki, shaxs o'sha guruhga kirishni, uning ma'qullashiga muhtoj bo'lmaydi, lekin o'z harakatlarini yo'lga solishda unga asoslanadi va korreksiya qiladi. Masalan, talabalar guruhida shunday yoshlar bo'lishi mumkinki, shaxs ular bilan umuman muloqotda bo'lmaydi, ularning fikrlarini yoki qarashlarini yoqlamaydi, lekin bu guruh aynan o'shalarga o'xshamaslik va o'z ustida ko'proq ishlashga o'zini safarbar qilish uchun kerak yoki talaba yoshlar sessiya yakunlariga ko'ra differensial stipendiya oladilar. O'rtacha o'zlashtiruvchi talaba uchun “hamma talabalar” oladigan stipendiya miqdorini nazarda tutib, o'zini tinchlantiradi, a'lochi esa, o'zinikini nafaqat oddiy, o'rtachalar bilan balki, davlat stipendiyalari oladiganlar bilan ham solishtiradi. Ko'rsatkichlar yuqori bo'lsa, shunga mos da'vogarlik darajasi ham yuqori bo'ladi, shaxsning qiyoslash guruhleri ham ortiqroq bo'ladi.

Negativ guruhlar - shundayki, shaxs ularning hatti-harakatlaridan ataylab voz kechadi, chunki ular shaxsiy qarashlardan mutloq farq qiladi. Masalan, ikki qo'shni bir-biri bilan murosalar kelishmasa, hattoki, devorlarini oqlashda ham biri tanlangan rangni ikkinchisi tanlamaydi. Biri “oq” desa, ikkinchisi – aksincha, “qora” deb turaveradi.

Bulardan tashqari ijtimoiy psixologiyada guruhlarga ta'rif berishda ularni rasmiy va norasmiy turlarga bo'lish tendensiyasi ham mavjudligini alohida ta'kidlamogchimiz.

Demak, metodologik manbalarga ko'ra, *rasmiy guruhdagi* munosabatlar rasmiy me'yorlar va huquq burchlar tizimi bilan belgilangan bo'ladi. Masalan, guruhda boshliq bilan xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlovchi guruh rasmiy bo'lsa, *norasmiy* – ichki, bevosita psixologik munosabatlarni ta'minlovchi guruh hisoblanadi. Masalan, do'stlar guruhi, yoki talabalar guruhidagi barcha qizlarning tanaffus payidagi muloqot guruhi.

Turli guruhlar inson hayotida bir necha funksiyalarni bajaradilar: a) ijtimoiylashtiruvchi funksiya; b) instrumental, ya'ni aniq mehnat funksiyalarni amalga oshirishga imkon beruvchi muhit; v) ekspressiv – odamlarning o'zgalarni tan olishlari, hurmatga sazovor bo'lish, ishonch qozonishini ta'minlash; g) qo'llab-quvvatlash, ya'ni, qiyin paytlarda, muammolar paydo bo'lganda odamlarni birlashtirish funksiyasi.

R.S. Nemov tomonidan kichik ijtimoiy guruhlarning quyidagi klassifikatsiyasi taqdim etiladi.

KICHIK GURUHLARNING TURLARI	
Shartli (nominal)	Real (haqiqiy)
Tabiiy	Laboratoriya tipli
Formal (rasmiy)	Noformal (norasmiy)
Kuchsiz rivojlangan	Kuchli rivojlangan
Korporatsiya	Jamoalar
Referent	Noreferent

Mazkur klassifikatsiya bugungi ijtimoiy psixologiyada kichik guruhlar muammosi bo'yicha empirik tadqiqotlarni olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ko'pgina adabiyotlarda, guruhlar ulardagi odamlar soniga ko'ra *katta va kichik guruhlar*ga bo'linadi. Psixologiyada ko'proq kichik guruhlar o'rganiladi. Uni necha kishi tashkil etishi, necha kishining hamkorlikdagi faoliyati ko'proq samara berishi masalasi amaliy ahamiyatga egadir. Ko'pchilik olimlar guruhning boshlang'ich nuqtasi sifatida miqdor jihatdan ikki kishini – diadani tan olishadi. Polyak Yan Shepanskiy bunga qo'shilmasa-da (uning fikricha kamida uch kishi – triadadan boshlanadi), har qanday diada o'ziga xos uyushma sifatida tan olingan. Masalan, yangi oila qurib, birga yashayotgan kishilar, sevishganlar, ikki do'st – o'ziga xos kichik guruh. Har qanday kichik guruhga xos sifat shuki, uning a'zolari bir-birlari bilan bevosita muloqotga kirishish, "yuzma-yuz" bo'lish imkoniyatga ega bo'ladi. Har bir kishi uchun shu guruh juda ahamiyatli bo'lib, uning me'yorlariga o'zi xoxlab-xohlamay bo'ysuna boshlaydi. Kichik guruhning chegarasi masalasi ham ko'p muhokama qilinadi.

Bundan tashqari, fanda asosan ikki xil o'zaro moslik farqlanadi: *psixofiziologik va ijtimoiy psixologik*. Birinchi holatda faoliyat jarayonida odamlarning bir xil va mos tarzda harakat qila olishlari, reaksiyalar mosligi, ish ritmi va tezligidagi uyg'unliklar nazarda tutilsa, ikkinchisida ijtimoiy xulqdagil moslik – ustanovkalar birligi, ehtiyoj va qiziqishlar, qarashlardagi monandlik, yo'nalishlar birligi nazarda tutiladi. Birinchi xil moslik ko'proq konveyer usulida ishlanadigan sanoat korxonalari xodimlarida samarali bo'lsa, bu oliygoh o'qituvchilari, ijobiy kasb egalarida iloji yo'q va bo'lishi mumkin emas, ularda ko'proq ijtimoiy psixologik moslikning ahamiyati kattadir.

Amerikalik psixolog Xoffman o'z eksperimentlarida guruhli qarorlar qabul qilishga guruhning tarkibi ta'sir qilish mumkinligini isbot qilgan. Uning fikricha, yaxshi, sifatli, ijobiy fikrlar va qarorlar guruh tarkibi har xil (*geterogen tarkib*) bo'lgan sharoitlarda uning tarkibi bir xil (*gomogen*) bo'lgandan ancha ko'p va sifatli bo'ladi. **Gomogen** guruhlarda (masalan, taxminan bir xil o'zlashtiradigan talabalar guruhi) qarorlar qabul qilish mobaynida konfliktlarning kam bo'lishi va qarorlar tezda qabul qilinishi aniqlangan.

Shunday qilib, kichik guruhlariga psixologik xizmat ko'rsatishning metodologik asoslari sifatida qayd etilgan yuqoridagi ilmiy mushohadalar bugungi ijtimoiy psixologiya fanining quyidagi yo'nalishlariga amaliy jihatdan zudlik bilan hal qilinishi lozim bo'lgan muammo sifatida qarashni taqozo etadi.

Psixologik xizmat doirasida umumta'lim maktablarida faoliyat yurituvchi rasmiy va norasmiy kichik guruhlarini alohida tadqiqot ob'ekti sifatida qarash va uning o'ziga xos guruhli, hududiy va etnopsixologik imkoniyatlari ko'lamiga empirik jihatdan baho berish orqali ijtimoiy psixologiyada amaliy tatbiqiy vazifalarni belgilash mumkin bo'ladi.

Taniqli psixolog R.S.Nemov tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy psixologiyada muhim o'rin tutuvchi kichik guruhlar doirasidagi o'quvchi shaxsi va shaxslararo faollik motivatsiyasining tarkib toptirilishiga daxldor bo'lgan guruhli ijtimoiy psixologik relef

tizimidagi mezonlarning tadqiq qilinishi bugungi psixologik xizmat samaradorligini aniqlashda muhim metodologik manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Umuman, xulosa qilib aytish mumkinki, yuqoridagi mulohazalar asosida tadqiqotning amaliy yo‘nalishlari, metodikalari, empirik ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish dasturi ishlab chiqildi. Bu haqda batafsil ma’lumotlar ishning keyingi boblarida beriladi. Umuman, yuqoridagi nazariy tahlillarni umumlashtirgan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, mazkur muammoning ilmiy adabiyotlarda yoritilishi bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin. G‘arb psixologiyasida kichik guruhlar muammosi respondentlarning doimiy aloqadorligi, kam sonli shaxslar majmuasining hamkorlikdagi xarakatlari, har bir guruhdagi ob‘ekt va sub‘ektlarning o‘zaro diadaga asoslangan miqdoriy farqlarini anglash, guruhiiy identifikatsiya jarayoni bilan bog‘liq o‘zaro tasavvurlarning shakllanishi, ilmiy mushohadalar majmuasi markaziy o‘rinda turadi. Rus psixologiyasida kichik guruhlar muammosi har bir guruh a‘zolarining emotsionalligi, xohishi, ehtiyojlari va o‘ziga xos ijtimoiy yo‘nalganligi kabi holatlar asosida talqin qilinadi. Bu talqinlar markazida esa kichik guruhlarini harakatga keltiruvchi kuch bu muloqotning o‘ziga xos kommunikativ, interaktiv va perseptiv tomonlari alohida o‘rin tutadi. Bugungi ilg‘or ijtimoiy psixologiyada kichik guruhlar muammosini u yoki bu guruhdagi identifikatsiya jarayoni hamda uning o‘zaro faoliyatda va muloqotdagi rolini aniqlashga qaratilgan eksperimental tadqiqotlar natijalariga tayanib hal qilish tendensiyasining mavjudligiga alohida e‘tibor qaratish mumkin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Artemov V.A. Vvedenie v sotsialnuyu psixologiyu. M., 1927.
2. Asmolov A.G. Lichnost kak predmet psixologicheskogo issledovaniya – M.: MGU, 1984 – 104 s.
3. Asomova R.S. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi psixol.f.n. aftoreferati Toshkent, 2002 – 28 b.
4. Bagretsov S.A. i dr. Diagnostika sotsialno-psixologicheskix xarakteristik malyx grupp s vneshnim statusom. – Sank-Peterburg: Lan, 1999. – 640 s.
5. Babanskiy YU.K. Optimizatsiya uchebno-vospitatelnogo protsessa. M., 1982. 192 s.
5. Dubrovina I.V. Общие вопросы организационной деятельности школьной психологической службы.// Рабочая книга школьного психолога-М.: Просвещение, 1991, CHast 1- S.6-64.
7. Enikeev M.I. Psixologicheskii ensiklopedicheskiy slovar.-M.: TK Velbs Izd – vo Prospekt, 2006.-560s.
8. Djalolovich, R. J., & Ilhomovich, A. A. (2024). Causes of Deviation from Moral Standards in Teenagers and Ways to Eliminate it. Excellencia: International Multidisciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(5), 316-321.
9. Ramazonov, J. (2022). Моделирование механизмов самоуправления студентов. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 10(10).
10. Ramazonov, J. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАР ЎЗИНИ ЎЗИ ИДОРА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗИМЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 9(9).